XALQ DEPUTATLARI KO‘KDALA TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

2023 - yil 11 - sentabr VI-13-60-4-224-K/23 Ko'kdala tuman hokimligi

Ko‘kdala tuman mahalliy byudjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan mablag‘larni yo‘naltirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 126-moddasiga asosan tuman hokimligining Ko‘kdala tuman mahalliy byudjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan mablag‘larni yo‘naltirish to‘g‘risidagi takliflarini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddasiga asosan, Xalq deputatlari Ko`kdala tumani Kengashi,

Q A R O R Q I L A D I:

1.Tuman hokimligining Ko‘kdala tumani mahalliy byudjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va kreditor qarzdorliklarni qoplashga yo‘naltiriladigan mablag‘lar bo‘yicha takliflar ilovaga muvofiq ma’qullansin.

2.Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (B.Do`stov), tuman hokimligi iqtisodiyot va moliya bo‘limi (I.Muxammadiyev) bilan birgalikda:

bir hafta muddatda mazkur qarorning ilovasiga muvofiq ko‘zda tutilgan tadbirlarni o‘z vaqtida moliyalashtirilishini ta`minlasin;

“2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi talablari asosida tuman mahalliy byudjetining tasdiqlangan parametrlariga belgilangan tartibda tegishli o‘zgartirishlar kiritsin;

ajratilgan maqsadli mablag‘larni o‘z vaqtida va samarali ishlatilishi yuzasidan moliyaviy hisobotlar asosida tizimli o‘rganish hamda o‘rganish natijalariga ko‘ra, ishlatilmagan va iqtisod qilingan mablag‘larni tuman mahalliy byudjetiga qaytarish choralarini ko‘rsin.

3.Tuman g‘aznachilik xizmati bo‘limi (X.Ruziev) ajratiladigan mablag‘lar bo‘yicha shartnomalarni o‘z vaqtida ro‘yxatdan o‘tkazish va xarajatlarni belgilangan tartibda amalga oshirilishini ta’minlasin.

4.Mazkur qaror ijrosining nazorati xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi F.Bektemirov hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari B.Do`stovlar zimmasiga yuklatilsin.

5.Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi **X.Djurayev**

Xalq deputatlari Ko'kdala tuman
Kengashining
2023-yil 11-sentabrdagi
VI-13-60-4-224-K/23-son qaroriga
1-ilova

Ko'kdala tuman mahalliy budjetining qo'shimcha manbalari hisobidan ajratiladigan mablag'lar.

(mln.so'm)

T/r	Mablag' oluvchi tashkilot nomi	Tadbirlar nomi	Ajratiladigan mablag' miqdori
1.	Tuman maktab va maktabgacha ta'lim bo'limi	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining sovrini "xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha eng yaxshi maktab" tanlovida g'olib bo'lgan umumta'lim maktablarini rag'batlantirish xarajatlariga	225.0
2.	Tuman kambag'allikni qisqartirish va bandlikka kumaklashish bo'limi	Tuman hududida joylashgan mahalla fuqarolar yig'inlari ma'muriy binosining kadastr xujjatlarini tayyorlash xarajatlariga	21.0
	Jami		246.0

Ajratiladigan mablag'lar miqdoriga yakuniy hisob-kitoblar asosida o'zgartirish kiritilishi mumkin.